

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.K.Kurbaniyazova	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi	106
Sh.D.Shodmonova	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati	110
A.I.Samijonov	
“Xavfsizlik” va “Kiberxavfsizlik” atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi	114
N.X.Djalalova	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi	119
I.Z.Nazarova	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari	123

ТАРИХ

A.B.Musayev	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi	129
Ф.А.Эгамбердиев	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса	133
M.M.Xolmatov	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlari.....	138
N.R.Israilov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
O.B.Nizomiddinov	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi	149

АДАБИЙОТШУНОСЛИК

Q.V.Yo'lchiyev	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili	156
A.Badalova	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace"	161
S.F.Yuldosheva	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi	166
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi	170
S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning “Baldan so'ng” hikoyasi misolida).....	175
M.R.Oxunova	
Sharlotta Bronte “Jeyn Eyr” romanida xarakter tasviri	178
L.Hasanova	
Aesthetics of the literary direction romanticism	182
Q.V.Yo'lchiyev	
Abdulla sher sonetlari tahlili	186
Z.F.Shukurova	
“Tarixi Rashidiy” asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini	192

TILSHUNOSLIK

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
Z.V.Alimova	
Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Zar” va “Zarra” asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida	198



UO‘K: 82-94:811.512.133

“TARIXI RASHIDIY” ASARINING HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIGA TABDIL TALQINI**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПЕРЕВОДА ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ИСТОРИЯ РАШИДИ» НА
СОВРЕМЕННЫЙ УЗБЕКСКИЙ ЛИТЕРАТУРНЫЙ ЯЗЫК****INTERPRETATION OF THE TRANSLATION OF THE WORK "TARIKH-I-RASHIDI" INTO
THE MODERN UZBEK LITERARY LANGUAGE****Shukurova Zilola Fazlidinovna** 

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti assistenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Tarixi Rashidiy” asarining tabdil mohiyati tahlil qilinadi. Oldingi mumtoz adabiyotimizning boy tarixi, adabiy va madaniy ahamiyatini o‘zbek kitobxoniga hozirgi adabiy tiliga tarjima qilingan varianti muhokama qilinadi. Asardagi ba’zi muhim ma’lumotlar aslyat va tabdilda, ingliz va rus tillarida qanday tarjima qilinganligi ko’rsatib beriladi. Asardagi frazeologik birliklarning shu to’rt xil variantda qanday ma’no anglatishi tahlil qilinadi.

Аннотация

В данной статье анализируется смысл перевода произведения «История Рашиди». Будет обсуждаться версия о богатой истории, литературном и культурном значении нашей прежней классической литературы, переведенная на современный литературный язык для узбекского читателя. Будет показано, как некоторая важная информация в работе переведена на английский и русский языки. Анализируется значение фразеологизмов в произведении в этих четырех вариантах.

Abstract

This article analyzes the meaning of the translation of the work "Rashidi's Story". A version about the rich history, literary and cultural significance of our former classical literature, translated into a modern literary language for the Uzbek reader, will be discussed. It will be shown how some important information in the work is translated into English and Russian. The meaning of phraseological units in the work in these four variants is analyzed.

Kalit so‘zlar: aslyat, tabdil, frazeologik birliklar, rus tili tarjimasi, inglizcha variant, mohir tarjimon.

Ключевые слова: оригинальность, перевод, фразеологизмы, русский перевод, английская версия, опытный переводчик.

Key words: originality, translation, phraseological units, Russian translation, English version, experienced translator.

KIRISH

O‘zga tilda bitilgan badiy yodgorlikning davr talabi darajasida tasavvur beradigan tarjima matnini yaratish san’atkorning bu sohadagi amaliy va nazariy bilimlar bilan puxta qurollanishi zaruratini tug‘diradi[1;40]. Badiiy mahorat sirlarini har tomonlama mukammal egallab olgan qalamkashgina ushbu ijod mahsuli bo‘lmish fikrni asliymonand tarzda ifoda etish san’atini o‘zida puxta singdirib olgan iste’dod sohibi sifatida to‘laqonli badiy tarjimalar yaratishdek o‘ta mas’uliyatli ishning uddasidan chiqishi mumkin[2;49]. Shu qadar ko‘p o‘rganilgan asar “Tarixi Rashidiy” albatta tabdil qilinishga muhtoj, chunki bugungi kun o‘quvchisi uchun ko‘prik vazifasini o‘tovchi, tarjimaning eng so‘nggi variant bu tabdildir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarini muhokama qiladigan bo‘lsak, asarning uslubi bir-biriga mos kelmaydi. Muallif doimiy ravishda bir voqeani tasvirlashdan ikkinchisiga o‘tadi, keyin yana unga qaytadi va bunday holat bir necha marotaba takrorlanadi[3;10]. Takrorlash muallifga xos uslub bo‘lib, kishi o‘z xotiralarini qayta o‘qimasdan yozgandek taassurot uyg‘otadi. Ammo, umuman olganda, asar boy lug‘at va arabizmlarga boy majoziy adabiy tilda yozilgan[4;37]. “Tarixi Rashidiy”ni nafaqat tarixiy, balki adabiy va tarixiy-madaniy yodgorlik sifatida tan olgan tarjimonlar Mirzo Haydar tilidagi uslub va obrazlarni kitobxon qalbiga imkon qadar to‘g‘ri

ADABIYOTSHUNOSLIK

yetkazilishini ta'minlaganlar. Tarjimada asosan Mirzo Haydarning o'zi tomonidan yozilgan ko'plab she'riy qo'shimchalar saqlanib qolgan[5;87].

TAHLIL VA NATIJALAR

Va nihoyat shu o'rinda yuqoridagilar dalili sifatida asarning asliyat, tabdil, ruscha va inglizcha tarjimasini tahlil qilishga urinamiz. Asaliyat 2-kitobida, 92-faslda, 283-sahifada berilgan quyidagi matn va baytga nazar tashlasak:

“Mir Alisher taxalluslari Navoiydir. Turkiy she'rda bulardin xoh oldin, xoh keyin hech kishi bu martabada she'r aytmabdur. Bular she'r ilmida ustodurlar. Ularning turkiy she'rlarining shuhrati ul nav'edurki, Mulla Amodiyning forsiy she'rlarining shuhratidekdur. Ammo Mir Alisherning forsiy she'rlari ham to'ladur. Forsiy she'rlarida o'zlarini Foniylar birla taxallus qilibdurlar va Xoja Xofizning devonlariga javob aytibdurlar. Va “Qasidai abror” ni Xoja Xusravdin keyin xech kishi ul martabada aytmabdurlar. Ul qasidaning matla'i budur. Bayt:

Otashin la'leki toji xisravonro zavar ast

Axgare bahri hayoli xom puxtan dar sar ast” [6;283].

Mir Alisher Navoiy haqidagi yuqoridagi gaplar va she'riy parchani kitobxon tabdilsiz turkiy tilda ham tushunishi u qadar mushkul emas. Bu esa tarjimonga unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Lekin Vahob Rahmonovning tabdil talqinini ko'rsangiz birmuncha mulohazalar berish mumkin. Tabdilning 2-kitob, 9-faslning 291-betida berilgan,

“Uning taxallusi - Navoiydir. Ungacha ham, undan keyin ham turkiy tilda hech kim unchalik ko'p sher bitgan emas. U she'r ilmining ustasi, uning turkiycha she'rlarining shuhrati Mullo Jomiyning forscha she'rlari shuhrati bilan teng. U fors tilida ham ko'p she'rlar yozgan. Forscha she'rlarini Foniylar taxallusi bilan bitgan. U Xoja Hofiz Sheroziy devoniga nazira tarzida devon tuzgan. Xoja Xisrav Dehlaviydan keyin “Yaxshilar daryosi” (“Daryoi abror”) qasidasiga hech kim Mir Alisher Navoiychalik javob yozolmagan. Mana undan bir bayt:

Шоҳлар тожидаги оловранг лаъл тош,

Чўғдирки пиширап хом хаёлин бош” [7;291].

Mohir tarjimon sifatida Vahob Rahmonov va Yanglish Egamovalarning she'riy parchaning qofiya va mazmuniga diqqat qaratsak, she'rning fors tilidagi variantida “zavar ast” va “dar sar ast” qofiyadosh so'zlar bo'lib, ya'ni “zavar ast” -“zargarlik buyumi bor” va “dar sar ast” – “boshning ustida bor” degan ma'noni bildiradi, lekin bu so'zlar qofiyaga uncha tushmaydi, tabdilda esa bu so'zlar “tosh, ya'ni qimmatbaho tosh” va “bosh” so'zlari bir-biri bilan qofiyaga moslashtirib berilgan. Tarjimon bu yerda qofiya va ma'no uyg'unligini ta'minlab, asliyatga yaqin qofiyadosh so'zlarni tanlab, she'rni ohangdor bo'lishiga ham katta e'tibor berib tarjima qilgan.

Xuddi shu baytning rus tilidagi tarjimasiga diqqat qaratsak. Ushbu parchaning 2-kitobida, 9-faslning 280-sahifasida keltirilgan.

“Огненный рубин, который украшает корону владык,

Это горячий уголь для того, чтобы печь в голове несбыточные мечты” [8;280].

Ushbu baytda A.O'rinboyev boshchiligidagi bir guruh tarjimonlar fors tilidan rus tilidagi tarjimasida qofiyaga tushmagan bo'lsa-da, lekin baytning asl mazmun mohiyatini yoritib bera olishgan. Ammo negadir Denison Rossning inglizcha tarjimasidagi aynan bu qismi, ya'ni Alisher Navoiy va asarda keltirilgan Sharqning boshqa mashhur shoir va ulamolari haqidagi o'n besh betga yaqin muhim ma'lumotlar umuman tarjima qilinmay tashlab ketilgan. Nomi olim va avliyolar safida bo'lgan Mavlono Abdurahmon Jomiy, Mavlono Sa'diddin Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mavlono Mu'in Voiz, Amir Temur davrida yashab ijod etgan yirik mutakallim-musulmon ilohiyot olimi, faylasuf, shoir va munajjim Mir Said Sharif Jurjoniy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Alouddin Attor, yetuk musavvir Kamoliddin Behzod, o'z davrining tengi yo'q me'mori Ustod Bobo Hoji, Muzahhiblar – kitobga naqsh soluvchi va zarhal beruvchilardan eng mohirlari Mullo Yoriy va Mullo Vali hamda nasta'liq xati asoschisi (o'sha zamonda keng tarqalgan, ungacha ishlatilmagan) Amir Temur zamonida yashagan Mir Ali Tabriziy hattoki musiqa asboblari g'ijjak, ud, balabon (arfa) va boshqalarni chalishda mohirlari Ustod Said Ahmad G'ijjakiy, Ustod Haydarshoh Balaboniy, Ustod Shayx Noyi va juda ko'plab o'sha davrning mashhur me'mor, hattot, naqqosh, shoiru yozuvchilar, hofiz-u ashulachilar shular jumlasidandir.

Gaplarimiz dalili sifatida ushbu nodir asar muallifi Mirzo Haydarning ilm va hunar ahli haqidagi quyidagi matnni havola etsak: “Shayx Noyi hamma musiqa asboblarni hamma

ustozlardan yaxshiroq chalardi, ammo nay chalish asosiy mashg'uloti bo'lganligidan u shu sohada shuhrat qozondi.

Fazl va hunar ahllarini Xuroson bo'ylab aniqlash, topish va ishga jalb etib tarbiyalashda Mir Alishering sa'y-harakatlari mislsizdir. O'sha davrdagi ilm, san'at, hunar ahli orasida buyuklari, mislsiz vakillari ko'p edi, ammo hammasi haqida hikoya qilish qiyin. O'sha paytda Xurosonda yetishib chiqqan, ilm-fan, san'at namoyandalarining barchasi Mir Alisher Navoiy g'amxo'rligi va tarbiyasi tufayli kamolotga erishganlar". Shuning uchun ham bulardan ham oldingi va o'zining davrida yashagan mutafakkirlarni guvohi bo'lgan buyuk sarkarda Amir Temur ishonch bilan aytgan quyidagi so'zlarini yodga olsak: "Agar kimda-kim bizning qudratimizga shubha qilsa, biz qurgan binolarga boqsin". Bundan ko'rinib turibdiki, o'sha davrda rivoj topgan Sharqning ilm-fan va madaniyatiga qiziqib, uning muxtasar tarixini o'rganib, "Tarixi Rashidiy"ni G'arb tillariga tarjima qilish, birinchilardan bo'lib, asarning tabdilidan ko'ra, ancha asr ilgari asosan G'arbiy, ya'ni ingliz olimlari tomonidan amalga oshirilgani bejizga emasdir.

Yuqorida berilgan na nasriy va na nazmiy parchalarni tarjima qilish tarjimon D.Rossga umuman qiyinchilik tug'dirmasdi. Chunki bu parchada tarjimasi qiyin kechadigan sheva, frazeologik birliklar, maqol va matallar deyarli yo'q, ammo nega aynan Sharqning ko'zgusi bo'lgan zamonasining mislsiz olimu fuzalolari, Sharqning qanday bir buyuk ilm-fani, hunar ahli, madaniyati, san'ati, qolaversa, bir so'z bilan aytganda naqadar kuch-quvvati borligini kaftdek nomoyon qiluvchi asarning bu qismi, ya'ni allomalar haqidagi ta'riflari tarjima qilinmagani bizga noma'lum, faqatgina Mavlono Abdurahmon Jomiy, Mavlono Sa'diddin Koshg'ariy va Mavlono Nizomiddin Xomush kabi ulug' siymolar ta'rifi ingliz tiliga o'girilgan. Balki, D.Ross tarjima qilgan nusxada bu ma'lumotlar necha asrlar davomida har hil hattotlar tomonidan tushirib qoldirilgandir, deganturli taxminlarga kelamiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada keltirilgan tahlil natijalaridan o'qib, xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ushbu nashr yurtdoshlarimizning Vatani haqidagi tarixiy ongini shakllantirishga, tarixiy xotirasini tiklashga, tariximiz va o'zligimizni bilishga, xalqimiz tarixini, millatning ma'rifiy ma'naviyatitini yanada boyitishga ulkan hissa qo'shishiga ishonchimiz komil. Xalqimiz o'zining oltin merosini ona tilida o'qishga muyassar bo'lishi ham diqqatga sazovor. O'zbekiston tarixini yorituvchi kitoblariga mushtoq bo'lib yurgan xalqimiz, ayniqsa, ilm shaydolari va talabalarimizga bu kitob arziguday armug'on bo'ladi, degan umiddamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fozilova Sh, Sultanova D.Tarjima mutaxassisligiga.kirish-Samarqand, 2007. – B.40.
2. Hamidov X.X. –"Trajimashunoslik".- Toshkent – 2012.- 49.
3. Jalilov O.H. "Tarixi Rashidiy"-O'zbekiston:2011.-10-B
4. Мугинов А.М. Описание уйгурских рукописей Института Народов Азии.-Москва: Изд-во восточной литературы, 1962.- С 37-44.
5. Erskine W. History of India under the two first sovereigns the nous of Taimur, Babur and Humaiyn, w. I-II, London, 1854.
6. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, tabdil, isohlar va ko'rsatkichlar muallifi t.f.n. O. Jalilov. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 4.
7. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. Vahob Rahmonov va Yanglish Egamov tarjimasi. – T.: Shark, 2010. - B. 6.
8. Мирза Мухаммад Хайдар. Та'рих-и Рашиди. Введ., пер. с персидского А.Урунбаева, Р.П. Жалиловой, Л.М. Епифановой. Примечания и указатели Р.П. Жалиловой и Л.М. Епифановой. – Т.: Sharq, 2010,2016.